

Umidjon BAQOYEV,
Buxoro davlat universiteti magistranti
 E-mail: *umidjonbaqoyev7@gmail.com*
 Tel.: +99893 080-78-28

PhD, professor A.Zamonov taqrizi asosida

ASHTARXONIYLAR SULOLASI VA SAFAVIYLAR DAVLATI HARBIY- SIYOSIY ALOQALARI TARIXIDAN

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ashtarxoniylar sulolasi va Safaviylar davlati siyosiy aloqalari manbalar va ilmiy adabiyotlar orqali tahlil qilingan. Buxoro xoni shayboniy Abdullaxon II harakatlari natijasida tutib turilgan Xuroson Abdulmo‘minxon vafotidan so‘ng, Eronda hukmronlik qilayotgan Safaviylar sulolasi ta‘siriga tushib qolgan edi. Safaviylar ushbu hududlar bilan cheklanib qolmay, Balx hatto Buxoroni ham o‘zlariga qaram qilish yo‘llarini qidirganlar. Maqolada Eron-Buxoro o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, Xuroson bosib olinganidan so‘ng Balx uchun kurash kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Balx, Hirot, shayboniy sultonlar, ashtarxoniylar, safaviylar. shoh, xon, amir.

ИЗ ИСТОРИИ ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ДИНАСТИИ АШТАРХАНИДОВ И ГОСУДАРСТВА СЕФАВИДОВ

Аннотация

В данной статье на основе источников и научной литературы анализируются политические отношения между династией Аштарханидов и государством Сефевидов. После смерти бухарского хана Шейбани Абдулла-хана II Герат и Хорасан в целом попали под влияние правящей Ираном династии Сефевидов. Сефевиды не ограничивались этими регионами и искали пути подчинить себе Балх и даже Бухару. В статье рассматриваются такие вопросы, как взаимоотношения Ирана и Бухары, борьба за Балх после завоевания Хорасана.

Ключевые слова: Балх, Герат, Шайбанитские султаны, Аштарханиды, Сефевиды. король, хан, эмир.

FROM THE HISTORY OF THE MILITARY AND POLITICAL RELATIONS OF THE ASHTARKHANID DYNASTY AND THE SAFAVID STATE

Annotation

This article analyzes the political relations between the Ashtarkhanid dynasty and the Safavid state through sources and scientific literature. After the death of Bukhara Khan Shaybani Abdullah Khan II, Herat and Khurasan in general fell under the influence of the Safavid dynasty ruling Iran. The Safavids did not limit themselves to these regions, they looked for ways to subjugate Balkh and even Bukhara. The article covers issues such as mutual relations between Iran and Bukhara, the struggle for Balkh after the conquest of Khorasan.

Key words: Balkh, Herat, Shaibani sultans, Ashtarkhanids, Safavids. king, khan, emir.

Kirish. Xuroson Safaviylar sulolasi hukmronligiga o‘tgandan so‘ng, Eronning Buxoro xonligi bilan munosabatlari yomonlashgan. Buning asosiy sabablaridan biri shoh hukumatining ularga qarshi olib borgan siyosati edi. Bu siyosat O‘rta Osiyodagi unumdor yerlarni va boy shaharlarni bosib olishga qaratilgan. O‘rta Osiyo Safaviylar sulolasini boshqa tomondan ham o‘ziga tortgan. Ya‘ni Safaviylarning bir qator boshqa davlatlar, jumladan, Sibir va Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq bog‘lagan yo‘llar ham shu yerdan o‘tgan. Safaviylar davlati bilan xorijiy davlatlar o‘rtasida O‘rta Osiyolik savdogarlar vositachilik qilgan[5].

Safaviylarning asosiy maqsadlaridan biri bu Balx va hatto Buxoroni egallash bo‘lgan. Tarixchi olim Azamat Ziyo fikriga ko‘ra, qizilboshlar (1602, 1605, 1606, 1607) bir necha bor ushbu rejalarini amalga oshirganiga qaramay, biror bir natijaga erisha olmagan[8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ashtarxoniylar sulolasi va Safaviylar davlati harbiy-siyosiy aloqalari tarixining turli jihatlarini Iskandarbek Munshiyning “Tarixi olamroyi Abbosiy”, Hoji Mir Muhammad Salimning “Silsilat us-salotin”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” kabi asarlardan o‘rganish mumkin. Shuningdek, N.D. Miloxo-Maklay (1980), Azamat Ziyo (1989, 1990, 2001) Audrey Burton (1997), A.M. Dehkurdiy (2006), A. Saidov (2010), Tofiq Nejeqli (2021) kabi olimlar Eron-Buxoro siyosiy aloqalari tarixi bilan bog‘liq maxsus tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, tizimlilik, xolislik, qiyosiy tahlil va statistika usullardan foydalanilib, Buxoro xonligini idora qilgan Ashtarxoniylar va Safaviylar sulolasi o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy munosabatlar tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Shoh Abbas I Xurosonni bosib olganidan so‘ng[6] darhol o‘z rejalarini amalga oshirishga kirishadi va 1599-yilda Xurosonga boradi. Uning tashrifidan maqsad Mashhaddagi Imom Rizo ziyoratgohini ziyorat qilish bo‘lgan[5].

Abbos I ning Xurosonga tashrifining asosiy sabablaridan yana biri shimoliy hududlardagi Marv, Niso, Obivard, Dorun kabi viloyatlarni o‘z kuchi va hokimiyatini qo‘lida saqlab qolish bo‘lgan. Mazkur davrida ushbu hududlar Abbas I ning vakili Xorazm shahzodasi Nurmuhammadxon tomonidan boshqarilgan. Bu hududlarda shoh Abbas I hokimiyatining kuchayishini istamagan ko‘chmanchi qabilalar xususan naymanlar Nurmuhammadxonga qarshi bo‘lgan. Shu sababli Shoh Abbas I Nurmuhammadxonga yordam berish va o‘z mavqeyini mustahkamlash maqsadida Xurosonga boradi[5]. Shoh Abbas I Markaziy Osiyodagi ichki tartibsizliklar va fuqarolar o‘rtasidagi nizolardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga qaror qilgan.

Safaviy shoh Abbas I Xurosonga yetib kelguniga qadar uning huzuriga Buxorodan shayboniy hukmdori Pirmuhammadxon va Marvdan Nurmuhammadxon elchilari kelgan. Ushbu elchiliklar shoh Abbas I ga O‘rta Osiyodagi siyosiy vaziyatni yaxshi bilishga va uning ichki ishlariga aralashishga yo‘l ochib bergan.

Bu davrga kelib Movarounnahrda Shayboniylar va Ashtarxoniylar o‘rtasida oliy hokimiyat uchun kurash avj olgan edi. Ulardan biri ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxon (1599-1605) edi. Boqi Muhammadxonga qarshi yana bir shayboniy shahzoda Pirmuhammadxon Buxoro taxtini egallagan[3].

Tarixchi Iskandarbek Munshiy yozishicha, Shoh Abbos I Xurosondagi ishlar bilan tanishish, Movarounnahrda vazyatni nazorat qilish va Xorazm shahzodasi Nurmuhammadxonni himoya qilish maqsadida Xurosonga borishga qaror qilgan. Buxoro amirlari va Pirmuhammadxon tomonidan yuborilgan elchilar Shoh Abbos I tomonidan qabul qilingan[3]. Pirmuhammadxon yuborgan elchilari orqali shoh Abbos I dan Bag'dodda qizilboshlilar tomonidan asirga qilingan Jonibekning nevarasi Muhammad Ibrohimni ozod qilishni so'ragan. Buxoro amirlari ham Muhammad Ibrohimni ozod qilishni shohdan iltimos qilgan. Buxoro amirlarining maqsadi Pirmuhammadxonni taxtdan olib tashlash edi. Chunki Samarqandda hokimlik qilayotgan Boqi Muhammadxon ham Buxoroga tahdid solayotgan edi[3]. Shoh Abbos I muammoni hal qilish maqsadida vositachilik qilayotgan Nurmuhammadxonga maktub yuborib, Buxoro amirlari o'z majburiyatlariga sodiq qolib, Marvda Muhammad Ibrohimni kutib olishlarini va masala hal bo'lganligini yozgan. Qizilboshlilar Semnan (Simnon)ga yetib borgach, Nurmuhammadxon elchisi Shoh Abbos I tomonidan qabul qilingan. Elchi safaviy shohiga Boqi Muhammadxon Pirmuhammadxonga hujum qilib, uni o'ldirganini hamda davlatni o'z qo'lga olganini xabar bergan[1].

Boqi Muhammadxonning Movarounnahrda g'alabasi Shoh Abbos I ni Buxoro xonligini bosib olishga doir rejalaridan voz kechishga emas, faqatgina rejalarini biroz o'zgartishga majbur qilgan. Balx zodagolarining murojaati tufayli shoh Abbos I Balx ichki ishlariga aralashishga uringan. Bu vaqtda Balxdan bir elchilik Muhammad Ibrohimni talab qilib Isfahonga kelgan[2]. Chunki Boqi Muhammadxonning Movarounnahrda g'alabasi Balx amirlarini xavotirga solgan.

Balx hukmron doiralari o'z kuchi bilan Boqi Muhammadxonga qarshi kurashda hokimiyatni saqlab qolishga umid qilmadilar, bundan ko'ra ular Shoh Abbos I huzuriga Muhammad Ibrohimni ozod qilish maqsadida elchi yuborgan. Shoh Abbos I bu iltimosga darhol javob qaytaradi va bu uning rejalariga to'liq mos bo'lgan. U darhol Muhammad Ibrohimga hukmdorlik rutbasini bergan va uni o'zining "o'g'li" deb e'lon qilgan. Shu tariqa rasman shayboniy shahzodasini o'z himoyasiga olgan. Bundan tashqari, shoh Abbos I Balx hukmdori Abdulmo'minxonga maktub yozib, bu yerda azaldan marhum podshoh Jonibekxon o'g'lining ota-bobolari maskani ekanligini bildirgan[3].

Boqi Muhammadxon o'z hokimiyatini mustahkamlagan bo'lsada, Shoh Abbos I Jonibek sultonning o'g'li Muhammad Ibrohimni taxtga o'tqazishga qaror qilgan.

Boqi Muhammadxonga Abdulmo'min tabrik yo'llagan bo'lsada, unga unchalik ahamiyat bermagan. U Balx hokimini ma'qullamagan. Shundan keyin, Abdulmo'minxon Boqi Muhammadxonga Samarqandda jang qilish uchun askar tortadi. Balxdagi vaziyatdan xavotir olgan amirlar Shoh Abbos Iga yana maktub yo'llab, Muhammad Ibrohimni yuborishni iltimos qilgan. Shoh Abbos I Muhammad Ibrohimni ikki maktub bilan Balxga yuboradi. Maktubning biri Abdulmo'minxonga, ikkinchisi esa Balxdagi amirlarga yozilgan. Shoh Abdulmo'minxonga "o'g'lim" deb murojaat qilib, Jonibekxonning o'g'illaridan biri bo'lgan Muhammad Ibrohim bilan adovatni tugatish va uni Balx xonligi taxtiga keltirmoqchi ekanligini bildirgan[3]. Amirlarga yozilgan maktubda esa Abbos I Jonibekxonning o'g'lini qo'llab-quvvatlashlarini so'ragan[3]. Ammo tez orada Shoh Abbos I Balx zodagonlarining asl niyatlaridan shubhalangani uchun Mashhadga kelgan Muhammad Ibrohimni yuborishni kechiktirishga qaror qilgan va Balxdagi vaziyatni aniqroq o'rganish, aholining qo'llab-quvvatlashiga aniqlik kiritishga qaror qilgan. Shu sababdan Abbos I Ruhallabey Zulqadarni o'zbek elchilari bilan birgalikda Balxga yuborgan[2].

Iskandarbek Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, 1600-yil bahorida shoh Abbos I Hirotda borgan. U Marv hokimi Nurmuhammadxon va Xorazm hokimi Hoji Muhammadxon elchi yuborib, ularni Movarounnahr masalalarida maslahatlashishga taklif qilgan. Hoji Muhammadxon yo'lda kasal bo'lib qolgan uchun borib bilmagan. Nurmuhammadxon esa asossiz sabablarni aytib, kelishdan bosh tortgan[3].

1600-yil aprel oyida Balxdagi vaziyat haqida Shoh Abbos I tomonidan yuborilgan Ruhallabey Zulqadar qaytib kelgan. Ruhallabey Zulqadar aytishicha, u olib borgan maktub Balxda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan, balxliklarning bir qismi Muhammad Ibrohimni qo'llab-quvvatlagan, boshqalari esa uni qo'llab-quvvatlamagan.

Safaviylar shohi Balxning harbiy amaldorlari orasida ikki guruh borligini aniqlagan: biri Muhammad Ibrohim tarafdorlari, ikkinchisi, Abdulmo'minxon tarafdorlari; shu bilan birga ikkinchi tarafdorlar hokimiyatni boy berilishidan qo'rqib, Muhammad Ibrohimning Balxga kelishiga keskin qarshilik ko'rsatgan. Abdulmo'minxon tarafdorlari bir to'xtamga kelish uchun yig'ilish o'tkazganlar[3].

Ular yig'ilishda Muhammad Ibrohim Abdulmo'minxonni katta akadek hurmat qilishi va amirlarga bo'ysunishini, Movarounnahr tamomila egallaganidan keyin Abdulmo'minxon Balxda, Muhammad Ibrohim esa Buxoroda qolishi sharti bilan rozi bo'lganliklarini aytishadi. Balxdagi zodagonlar Abdulmo'minxonni ranjitmaslik uchun shahar tashqarishida Muhammad Ibrohim bilan uchrashishni rad etishgan. Maymanada Muhammad Ibrohim uchrashgan deligatsiya uning kelishuv shartlarini bajarmasligini va Abdulmo'minxonga itoat qilmasligini tushungan. Shuning uchun zodagonlarning bir qismi yig'ilishni tark etib, Balxga qaytadi. Qolgan ayonlar Muhammad Ibrohimning qizilbosh askarlar bilan kelishga qarshi chiqdi va Muhammad Ibrohimning ularga taslim bo'lishini talab qilgan. Budaqxon va Xudoynazarbek bu shartlarni rad etishgan. Har ikki tomon vakillari vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida Shoh Abbos I bilan uchrashib, uning buyrug'ini amalga oshirishga qaror qilgan[4].

Hirotda har ikki tomonning elchilari shoh huzuriga bordilar. Abbos I qarorgohida bu boradagi uzoq muzokaralardan keyin ikkala tomonni yarashtirish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Abdulmo'minxon "katta aka" va Muhammad Ibrohim "kenja uka" deb e'lon qilingan. Movarounnahr zabt etilganidan so'ng, ularning biri Buxoroga, ikkinchisi esa Balxga hukmdor bo'lishi kerak edi. Balx zodagonlari vakillari roziligi kelganidan so'ng, shoh Abbos I Muhammad Ibrohimni qizilbosh qo'shini bilan Balxga yuborgan. Shoh Abbos I Muhammad Ibrohimning Buxoro va Movarounnahr g'arbida boshqinchilariga qarshi qo'shin boshqarishini va bu jang rejalarida Abdulmo'minxon va zodagonlarning birgalikda qo'shib, harakat qilishini bildirgan. Shoh Balx hokimi Abdulmo'minxonning nazoratidagi hududlar uchun hech bir rejasi yo'qligini o'zbeklar bilan kelishishga tayyorligini bildirgan[3].

Muhammad Ibrohimga shoh Abbos I imperiya qurollarini bergan va Mashhad hokimi Budaqxon va Ibrohim Husaynxon Feruzjongilar unga hamrohlik qilgan. Muhammad Ibrohim qizilbosh jangchilari va Xudoynazarbek bilan birgalikda Balx tomon harakatlangan[3].

Muhammad Ibrohim qizilbosh jangchilari va Xudoynazarbek hamrohligida Balx tomon harakatlangan. U sarkardalar Imomquli va Pokiza Turkmanni amakisining oldiga yuborib, uning Balxga borayotganini va aholini kutib olishini bildirgan. Sarkarda Imomquli Balxga yetib borib, ushbu xabarni yetkazgan. Bir qancha zodagon va amirlar Muhammad Ibrohimni kutib olish maqsadida Maymana chegarasiga borgan. Uni kutib olishgan va ko'plab masalalar yuzasidan gaplashishgan. Balxlik zodagonlari Muhammad Ibrohimni bo'yin egmasligini tushungan[3.134]. Abdulmo'minxonga sodiq bo'lgan ba'zi kishilar shaharga qaytishgan. Bir guruh kishilar esa qizilbosh qo'shining yordamga kelishiga qarshi chiqqan. Budaqxon va

Xudoynazarbeklar ushbu taklifga rozi bo'lishmagan va ushbu vaziyatni shohga bildirishgan[1]. Balx amirlari Shoh Abbas I ga o'z elchilarini yuborib, shunday takliflarni yozishgan: "Biz shuni sizga bildiramizki, Muhammad Ibrohim Buxoro qo'shinlarini tortib, Movarounnahrdaги soxta odamlar qo'lidan hokimiyani olsin. Bizning hukmdorimiz Abdulmo'minxon, Balx amirlari va zodagonlari bilan hamkor va hamjihatdir. Biz Balx xonligini va Abdulmo'minxon tomonidan zabt etilgan yerlarni undan tortib olishni istamaymiz va Balxga qizilbosh qo'shinlarini kelishini istamaymiz". Tomonlardan orasidagi kelishuvga erishilgach, shoh sarkarda Imomquli va Pokizani ikkinchi marotaba Balxga yuborgan va balxliklar bilan uchrashgan. Ushbu kelishuvlar natija bermagach, Abbas I murosa qilishga majbur bo'lib, Balxni egallash niyatidan voz kechgan. Ammo Muhammad Ibrohimning tarafdorlari shoh vakillari bilan yashirin kelishuvga erishgan. Mazkur kelishuvga ko'ra amaldorlar Abdulmo'minxonni taxtdan ag'darilib, Muhammad Ibrohimni hukmdor qilib ko'tarishga vada berishgan[3]. Muhammad Ibrohim shohning roziligini olib qizilbosh qo'shinlari bilan Maymanani tark etib, Balxga yo'lga tushgan. Balxga yetib borgan zahoti Muhammad Ibrohim tarafdorlari fitna uyushtirib, Abdulmo'minxonni o'ldirgan. Shundan so'ng, Muhammad Ibrohim Balx hokimi bo'lgan. Shayboniylar davlatining muhim mintaqalaridan biri bo'lgan Balx 1600-yil iyul oyida Muhammad Ibrohim qo'lga o'tgan[1]. Tez orada uning hokimiyati Maymadan Badaxshongacha, Hisori-Shodmondan Amudaryoning shimoliga qadar kengaygan. Muhammad Ibrohim ushbu vaziyatni shoh Abbas I ga xabar qilgan. Uning saltanati va qudrati haqidagi xabar Movarounnahrda yetib borib, Boqi Muhammadxonni xavotirga solgan. 1600-yil kuzida Boqi Muhammadxon Badaxshon va Balxga yurish qilgan. U Jonibek o'g'illari va shahzodalari tomonidan boshqarayotgan Chag'oniyon va Hisori-Shodmon kabi hududlarni qamal qilgan. Bu shaharlarni hokimlik qilayotgan Jonibek o'g'illari Mahmud Sulton, Ubaydulla Sulton va Abdulla Sultonlar Boqi Muhammadxonning yengilib, Balxga Muhammad Ibrohim huziriga panoh istab borgan. Keyinchalik Boqi Muhammadxon Termizga yurish qilgan. U qaynotasi Abdi Xo'ja Jo'yboriy Termiz hokimi otasining shayxi bo'lganidan foydalanib, shaharni jangsiz egallagan[2].

Muhammad Ibrohim Balxda yuksak martaba ega bo'lgan amirlarga qarshi qattiqqo'l siyosat olib borgan. Shu sababli Balx aholisi unga nisbatdan dushmanlik bilan munosabatda bo'la boshlagan, chunki Muhammad Ibrohim yashirincha o'zini shia deb e'tirof etib, sunniy bo'lgan aholining noroziligiga sabab bo'lgan[16]. U Balxdagi hukmronlik davrida aysh-ishratga berilib, ko'plab begunoh insonlarni qatl qila boshlagan. Hatto Shoh Abbas I tomonidan unga maslahatchi qilingan Xudoynazarbekni ham o'ldirgan. Muhammad Ibrohim Balxda atigi bir yil hukmronlik qilib, 1601-yil noyabrda vafot etgan[16.13]. Iskandarbek Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Ibrohim chechak kasalligidan vafot etgan[1]. Bu davrda Muhammad Ibrohimning tarafdorlaridan biri bo'lgan Jonibekning o'g'illaridan biri Ubaydulla Sulton boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi. Ular Boqi Muhammadxon tomonidan yuborilgan Vali Muhammadxon boshchiligidagi qo'shinga qarshi kurashmoqchi bo'lgan. Muhammad Ibrohim vafotidan xabar topgan Boqi Muhammadxon fursatdan foydalanib, Hisori-Shodmon qal'asini qamal qilishni to'xtatib, Balxni zabt etishga qaror qilgan. U ukasi Vali Muhammadxonni Balxni zabt etish maqsadida qo'shin bilan yuborgan. Balx aholisi Boqi Muhammadxonga xayrihoh ekanligini bildirgan va Balxdagi qo'shin Vali Muhammadxon tomoniga o'tgan[7]. Ubaydulla Sultonning tarafdorlaridan biri bo'lgan devonbegi Yormuhammadbek Pirmuhammadning o'g'li Muhammad Salim va 13 yoshli shahzoda Jahongir Sultonni olib, Safaviylar shohi saroyiga qochgan. Ubaydulla Sulton va uning ukasi Boqi Muhammadxon bilan birga qolgan. Boqi Muhammadxon ularni Chag'oniyon va Hisori-Shodmonga hokim qilib tayinlagan[1]. Shunday qilib, Vali Muhammadxon bir oydan kamroq vaqt ichida Balxni egallab, Buxoro xonligi hududiga qo'shib olgan[7]. Balx yana Buxoro xonligi hududiga qo'shib olingan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Safaviylar Shayboniylar inqirozidan so'ng, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Xurosonni bosib olgan bo'lsada, Balx va Buxoroni o'ziga bo'suntira olmagan. Qizilboshlar (1602, 1605, 1606, 1607) bir necha bor ushbu rejalarini amalga oshirganiga qaramay, biror bir natijaga erisha olmagan. Shunday bo'lsada, ma'lum darajada Buxoroni 1601–1753-yillarda idora qilgan Ashtarxoniyalar va Safaviylar sulolasi o'rtasida ma'lum darajada siyosiy aloqalar olib borilgan.

ADABIYOTLAR

1. Isg'andar bəy Münşi Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi (Tarixə-aləmarayə-Abbasi). I kitab. Bakı, "Şərq-Qərb" Nəşriyyat evi, 2010. – 1144 s.
2. Burton A. The Bukharans. A dynastic, diplomatic and commercial history 1550-1702. Curzon, 1997. – 664 p.
3. Tofiq Nəcəfli. Azərbaycan Səfəvi imperiyasının Türkünstan xanlıqları ilə siyasi əlaqələri. "İdeal-Print" MMC, Bakı, 2021. – 342 s.
4. Дехкурди А.М. Взаимоотношения Ирана и Бухарского ханства в XVI-первой половине XVIII вв. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе. 2006. – 26 с.
5. Миклохо-Маклай Н. Д. Балхский поход шаха Аббаса I // Страны и народы Востока, Москва., 1980. – 147-163 с.
6. Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Тошкент: Info capital group, 2019. – 256 б.
7. Мухаммад Юсуф Мунши. Муқим-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956. – 303 с.
8. Зияев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.
9. Юсупова Д. Мухаммад Юсуф Мунший ва унинг "Тазкирайи Муқимхоний" асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. – Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2014. – 43-45 б.
10. Саидов А. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII - первой половине XVIII вв. Душанбе. 2010. – 301 с.